XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 18-mart VII-19-25-1-24-K/26 Marhamat tumani

2026-yilda Marhamat tumani bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son Qarori va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Marhamat tuman Kengashining sessiyasi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-son Qonuniga 9-ilova bilan, 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari tasdiqlanganligi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son Qarori 2-bandi “v”-kichik bandida xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga alkogol mahsulotlarini *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi, mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman (shahar)lar byudjetlariga yo‘naltirilishi belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin.

2. 2026-yil uchun Marhamat tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish

korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning stavkalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Abdurazzaqov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Boltayev), tuman soliq inspeksiyasi (v.v.b. F.Erkaboyev) bilan birgalikda mazkur qarorni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati (E.Jo‘rayeva) ushbu qaror bilan ma’qullangan Marhamat tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning stavkalarini ommaviy axborot vositalarida va tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e’lon qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Marhamat tumani Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Abdullajonov) hamda qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Abdurazzaqov zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oy muddatdan so‘ng kuchga kirishi belgilansin.

Kengash raisi **MUSURMONKULOV ABDULPATTO XXX**

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2026-yil 18-martdagi
VII-19-25-1-24-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Marhamat tumani hududida “Alkogol mahsulotlari”ni *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning stavkalari

T/r	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Bazaviy stavka *(O‘RQ-1105, 25.12.2025 y. 9-ilova)*	**yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish *(foizda)***	**2026-yil uchun yig‘im stavkasi**
1	Alkogol mahsulotlarini *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	20	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini *(bundan pivo mustasno)* realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	20	180 000